

## VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi 539- son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.


### Korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni

(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

Faoliyat ko'rsatayotgan

Ro'yxatdan o'tgan



#### Yuridik shaxs:


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka yega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga yega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi,

(2024- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2024- yil 1-oktabr holatiga 38,3 mingtani tashkil etdi, ulardan 32,3 mingtasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 34,2 foiz, sanoat – 17,4 foiz, qurilish – 6,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,6 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Farg'ona shahrida – 16,7 foiz, Qo'qon shahrida – 10,0 foiz, Marg'ilon shahrida – 7,5 foiz, Oltiariq tumanida – 5,8 foiz va Uchko'prik tumanida – 5,0 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.




### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan (34 616 ta) 3 717 taga ko'payganni quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli ko'paygani bilan ifodalash mumkin: sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 777 tadan 1 264 taga (o'sish 487 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 1 688 tadan 2 140 taga (o'sish 452 ta).

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish surati, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (105,9 %), savdo (90,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (99,3 %), tashish va saqlash (89,2 %), qurilish (80,7 %), sanoat (84,0 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (77,8 %), axborot va aloqa (67,2 %) va boshqa turdagi xizmatlar (97,3 %) sohalariga to'g'ri keladi.

### 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni va o'sish surati, %

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

### Tadbirkorlik subyektlari soni


### Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi



2024-yil 1-oktabr holatiga 32 272 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxonalar – 6 024 ta, oilaviy korxonalar - 4 530 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyat – 21 387 ta, aksiyadorlik jamiyati - 45 ta va boshqa turdagi korxonalar - 286 tani tashkil etadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'ladilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

### Yangi tashkil yetilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(yanvar-sentabr oylarida)

2024-yil yanvar-sentabr

oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 5 034 tani tashkil etdi.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Yozyovon tumani (77 taga), Rishton tumani (32 taga) va Farg'ona tumanida (8 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 41 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.



### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra birlikda)

Yillar kesimida soni


Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan

### kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


(1-oktabr holatiga ko'ra birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish




Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Farg'ona shahrida (16,5 foiz), Qo'qon shahri (10,2 foiz), Marg'ilon shahri (7,8 foiz), Oltiariq (6,1 foiz) va Uchko'prik (5,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50,0 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


## Hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1-oktabr holatiga ko'ra birlikda)



## Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar

2024- yil 1- oktabr holatiga ro'yxatdan o'tgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar soni 792 tani tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 146 taga yoki 122,6 %ga o'sgan.



## Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot

2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 216 tasi qo'shma korxonalar, 260 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumot


(2024 – yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2024-yil 1-oktabr holatiga chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 476 ta korxonalaridan 216 tasi qo'shma korxonalar, 260 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi

(1- oktabr holatiga ko'ra, yillar kesimida, birlikda)




### Oilaviy korxonalar


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024-yilning 1- oktabr holatiga 7 915 tani tashkil etib, ulardan 4 530 tasi yoki 57,2 % faoliyat yuritmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, (2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Oilaviy korxon**a – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon

ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon

ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxon

faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.